O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

Pul bozori va likvidlik sharhi

2026 yil II chorak



MUNDARIJA

Rezyume.....3
I. Bank tizimi likvidligi tahlili.....**4**
1.1. Umumiy likvidlik dinamikasi va omillari.....4
1.2. Byudjet operatsiyalarining bank tizimi likvidligiga ta’siri.....5
1.3. Likvidlikni tartibga solish operatsiyalari tahlili.....7
II. Banklararo pul bozori tahlili.....**9**
2.1. Pul bozori dinamikasi va foiz stavkalari.....9
2.2. Banklararo pul bozori segmentatsiyasi.....12
Ilova.....14

Rezyume

2026-yilning II choragida byudjet operatsiyalarining likvidlikka oshiruvchi ta’siri oshishi fonida bank tizimining likvidlik profitsiti I chorakka nisbatan 34,2 foizga o‘sib, o‘rtacha 74,4 trln so‘mni tashkil etdi.

Chorak davomida bank tizimining umumiy o‘rtachalash talabi I chorakka nisbatan o‘rtacha 1,1 trln so‘mga oshib, 19 trln so‘mni tashkil etdi.

Pul bozori foiz stavkalarini tartibga solishda II chorakda o‘rtacha haftalik 72 trln so‘m miqdorida 7 kunlik Markaziy bank obligatsiyalari tijorat banklari o‘rtasida joylashtirildi *(I chorakda 49 trln so‘m)*. Bunda, chorak davomida Markaziy bankning tijorat banklari bilan sof likvidlik jalb etuvchi bo‘lib, pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha sof pozitsiyasi 73 trln so‘mni tashkil etdi.

Chorak davomida UZONIA stavkasi o‘rtacha 13,4 foiz atrofida shakllanib, foiz koridori doirasida saqlandi. Shu bilan birga, likvidlik profitsitining jadal o‘sishi sharoitida asosiy stavka va UZONIA orasidagi tafovut kengayib, 0,6 foiz bandni tashkil etdi *(I chorakda 0,3 foiz band)*.

Mazkur chorakda banklararo pul bozoridagi REPO hamda depozit operatsiyalari umumiy hajmi 7,3 foizga oshib, 175 trln so‘mni tashkil etdi. Markaziy bank tomonidan likvidlikni jalb etish operatsiyalari hajmlarini oshishi bozor faolligining jadallashuviga olib keldi.

Bank tizimida likvidlik profitsitining saqlanib qolishi chorak davomida Markaziy bank likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga talab minimal bo‘lishiga olib keldi.

2026-yilning III choragida byudjet operatsiyalarining likvidlikka oshiruvchi ta’siri saqlanib qolishi kutilayotgan bo‘lsa, naqd pullar hamda xorijiy valyutaga bo‘lgan mavsumiy talab likvidlik profitsitini nisbatan kamaytiruvchi omillardan bo‘lishi kutilmoqda.

Bank tizimi likvidligini samarali tartibga solish maqsadida Markaziy bank likvidlikni jalb etish bo‘yicha asosiy operatsiyalaridan faol foydalangan holda pul bozori foiz stavkalarini foiz koridori doirasida, asosiy stavkaga yaqin darajada shakllanishini ta’minlash choralarini ko‘rib boradi.

I. Bank tizimi likvidligi tahlili

1.1. Umumiy likvidlik dinamikasi va omillari


Bank tizimining umumiy o‘rtachalash talabi 2026-yilning II choragida o‘rtacha 19 trln so‘mni tashkil etib, I chorakka nisbatan 6,3 foizga oshdi. Ushbu o‘sish majburiy zaxiralash bazasining kengayishi bilan izohlanadi.

Bank tizimi umumiy likvidlik holati[1] 2026-yil II chorakda o‘rtacha 74,4 trln so‘mni tashkil etib, I chorakka *(o‘rtacha 55,4 trln so‘m)* nisbatan 34,2 foizga baland shakllandi. Bunda, likvidlik profitsiti aprel oyidagi o‘rtacha 69 trln so‘mdan may oyida 73 trln so‘mgacha oshgan bo‘lsa, iyun oyida o‘rtacha 81,2 trln so‘mni tashkil etdi *(1-rasm)*.

Tijorat banklarining Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag‘i qoldig‘i chorak davomida o‘rtacha 21 trln so‘mni tashkil etib, o‘rtachalash talabidan ortiqcha likvidlik o‘rtacha 1,8 trln so‘mga teng bo‘ldi.

Mavsumiy omillar hisobiga muomaladagi naqd pullarga bo‘lgan talabning pasayishi II chorakda bank tizimi likvidligining 5,6 trln so‘mga oshishiga xizmat qildi.

1-rasm. Bank tizimidagi umumiy likvidlik holati, *trln so‘m*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

[1] **Bank tizimi umumiy likvidligi holati** – tijorat banklarining Markaziy bankdagi milliy valyutadagi vakillik hisobvarag‘i qoldig‘i va o‘rtachalash hajmi tafovutiga banklarning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha sof pozitsiyasi *(likvidlikni jalb etish operatsiyalari va likvidlikni taqdim etish operatsiyalari sof qoldig‘i)* qo‘shilishi orqali hisoblanadi. Ushbu ko‘rsatkich Markaziy bankning pul-kredit siyosati operatsiyalari amalga oshirilmagan vaziyatda bank tizimi umumiy likvidlik hajmining ehtimoliy miqdorini ko‘rsatadi.

1.2. Byudjet operatsiyalarining bank tizimi likvidligiga ta’siri

2026-yilning II choragida byudjet operatsiyalarining bank tizimi umumiy likvidligiga oshiruvchi ta’siri I chorakka nisbatan 2,7 barobarga oshib, 33,4 trln so‘mni tashkil qildi *(2-rasm)*. Xususan:

- O‘zbekiston Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi *(O‘TTJ)* operatsiyalari 0,6 trln so‘mga kamaytiruvchi;


- Qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi operatsiyalari 0,6 trln so‘mga oshiruvchi;

- Yagona g‘azna va byudjet hisobvaraqlari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar esa 33,4 trln so‘mga oshiruvchi ta’sirga ega bo‘ldi. Bunda oshiruvchi ta’sir chorak davomida barqaror shakllanib, oylik kesimda aprel oyida 10,2 trln so‘m, may oyida 12,2 trln so‘m hamda iyun oyida 11 trln so‘mni tashkil etdi.


Xususan, II chorakda auksion savdolari orqali tijorat banklari o‘rtasida joylashtirilgan muddatli depozitlar hajmi I chorakka nisbatan 84 foizga oshib, 14,8 trln so‘mni tashkil etdi.

Bunda auksion savdolari hajmi aprel oyidagi 2,3 trln so‘mdan may oyida 6,7 trln so‘mgacha oshgan bo‘lsa, iyun oyida 5,8 trln so‘mni tashkil etdi. Depozitlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkalari chorak davomida 14,2-14,6 foiz oralig‘ida shakllanib, I chorakdagi o‘rtacha 15 foizga nisbatan 0,6 foiz bandga pasaydi *(3-rasm)*.

2-rasm. Byudjet operatsiyalarining likvidlikka ta’siri, *trln so‘m*



3-rasm. Byudjet tashkilotlari tomonidan joylashtirilgan depozitlar, *trln so‘m*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Depozit auksionlari hajmining sezilarli oshishi byudjet tashkilotlarida shakllangan vaqtincha bo‘sh pul mablag‘larining ko‘payganini va ushbu mablag‘larning bank tizimiga qayta taqsimlanish ko‘lami kengayganini ko‘rsatadi.


Byudjet xarajatlarini moliyalashtirishda Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan ushbu davrda jami 9,4 trln so‘mlik davlat qimmatli qog‘ozlari muomalaga chiqarilgan. Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalarining qoldig‘i 2026-yil 1-iyul holatiga 55,2 trln so‘mni tashkil etdi *(4-rasm)*.

Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalari bo‘yicha daromadlilik 2026-yilning II choragi davomida oyma-oy pasayib borib, o‘rtacha 12,5 foizni tashkil etgan *(5-rasm)*.


Chorak davomida obligatsiyalar bo‘yicha daromadlilikning izchil pasayib borishi, asosan pul bozoridagi likvidlik darajasining sezilarli oshishi hisobiga davlat qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan talabning ortishi bilan izohlanadi.

Oldingi yillarda kuzatilgan mavsumiylikka asosan 2026-yilning III choragida ham byudjet operatsiyalarining bank tizimi likvidligiga oshiruvchi ta’siri saqlanib qolishi kutilmoqda. Shuningdek, davlat qimmatli qog‘ozlari emissiyasining davom etishi, o‘z navbatida, birlamchi va ikkilamchi davlat qimmatli qog‘ozlari bozori hamda banklararo REPO bozorining faollashuviga xizmat qiladi.

4-rasm. Iqtisodiyot va moliya vazirligi obligatsiyalari, *trln so‘m*



5-rasm. Daromadlilik egri chizig‘i, *foizda*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

1.3. Likvidlikni tartibga solish operatsiyalari tahlili

2026-yilning II choragi davomida Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari likvidlikni jalb etish orqali pul bozoridagi qisqa muddatli foiz stavkalarining foiz koridori doirasida shakllanishini ta’minladi.


Markaziy bank likvidlikni jalb qilish bo‘yicha asosiy operatsiya sifatida 7 kunlik obligatsiyalarni muomalaga chiqarishi bevosita bank tizimidagi qo‘shimcha likvidlikni Markaziy bank tomonidan samarali jalb qilinishiga va bu orqali pul bozoridagi foiz stavkalarining foiz koridori doirasida asosiy stavkaga yaqin darajada shakllanishiga hissa qo‘shdi[2].

Xususan, 2026-yilning I choragida o‘rtacha haftalik 49 trln so‘m miqdorida Markaziy bankning 7 kunlik obligatsiyalari tijorat banklari o‘rtasida joylashtirilgan bo‘lsa, II chorakda ushbu ko‘rsatkich 35 foizga oshib, 72 trln so‘mni tashkil etdi *(6-rasm)*.


Chorak davomida oylik o‘rtacha 288 trln so‘mlik obligatsiyalar emissiya qilindi. Shu bilan birga, emissiya hajmi oylar kesimida notekis shakllanib, aprel oyidagi 300 trln so‘mdan may oyida 186 trln so‘mgacha pasaygan bo‘lsa, iyun oyida 377 trln so‘mga yetdi.

Natijada, obligatsiyalar bo‘yicha o‘rtacha qoldiq I chorakdagi 48,7 trln so‘mdan II chorakda 65,7 trln so‘mgacha oshdi.

6-rasm. Markaziy bank obligatsiyalari emissiyasi, *trln so‘m*



7-rasm. Pul-kredit operatsiyalari, *trln so‘m*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

[2] 2025-yilning 1-avgustidan tizimdagi ortiqcha likvidlikni samarali jalb qilish maqsadida Markaziy bankning likvidlikni jalb qilish bo‘yicha asosiy operatsiyalari 1 haftalik depozit auksionlaridan 7 kunlik Markaziy bank obligatsiyalariga o‘zgartirilgan.

May oyida likvidlikni jalb qilish ko‘lamining nisbatan pasayishi likvidlik profitsitining o‘sishi bilan bir vaqtga to‘g‘ri keldi. Natijada, chorak davomidagi o‘rtacha UZONIA stavkasi asosiy stavkadan 0,6 foiz bandga past, 13,4 foiz atrofida shakllandi *(I chorakda tafovut 0,3 foiz band)*[3].

Tizimli likvidlik profitsiti sharoitida pul bozoridagi foiz stavkalarining keskin tebranishini oldini olish maqsadida, chorak davomida likvidlikni jalb qilish bo‘yicha asosiy operatsiyalar bilan bir qatorda Markaziy bankning overnayt depozit operatsiyalaridan ham faol foydalanildi.

Overnayt depozit operatsiyalariga talab I chorakka nisbatan 36 foizga o‘sib, kunlik o‘rtacha 6,9 trln so‘mni tashkil etdi. Asosiy faollik aprel-may oylarida kuzatilib, operatsiyalarning kunlik o‘rtacha qoldig‘i mos ravishda 8,1 va 8,4 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, iyun oyida ushbu ko‘rsatkich 4,3 trln so‘mgacha pasaydi *(7-rasm)*.

Mazkur chorak davomida Markaziy bankning tijorat banklari bilan pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha o‘rtacha sof pozitsiyasi 72,6 trln so‘mni tashkil etdi.

Bank tizimida likvidlik profitsitining saqlanib qolishi Markaziy bankning likvidlikni taqdim etish operatsiyalariga bo‘lgan talabni chorak davomida eng quyi darajada shakllanishiga olib keldi. Bunda aprel va may oylarida likvidlik taqdim etish operatsiyalari bo‘yicha talab kuzatilmadi.

Overnayt REPO operatsiyalari faqat iyun oyida amalga oshirilib, ularning oylik o‘rtacha qoldig‘i 29 mlrd so‘mni tashkil etdi. Ushbu talab, asosan, mavsumiylikdan kelib chiqib oy yakunida kuzatiladigan likvidlikning biroz pasayishi fonida shakllandi.

Shu bilan birga, tijorat banklarining amaliyot kuni ichida kun davomidagi foizsiz kredit instrumentidan foydalanish ko‘lamida avvalgi chorakka nisbatan o‘sish kuzatildi. II chorakda ushbu operatsiyalarning kunlik o‘rtacha hajmi 1,4 trln so‘mni tashkil etdi.

Ushbu holat likvidlik profitsiti sharoitida ham to‘lovlar uzluksizligini ta’minlash hamda likvidlikni boshqarishda tijorat banklarining pul-kredit instrumentlaridan faol foydalanayotganligi bilan izohlanadi.

Kelgusi chorakda ham Markaziy bank pul bozori foiz stavkalarini foiz koridori doirasida, asosiy stavkaga yaqin darajada shakllanishini ta’minlash maqsadida likvidlikni jalb qilish operatsiyalaridan faol foydalangan xolda tizimli likvidlik profitsitini samarali tartibga solish choralarini ko‘radi.

[3] 2022-yilning 15-dekabridan boshlab Markaziy bank tomonidan pul-kredit siyosatining operatsion maqsadi sifatida pul bozoridagi qisqa muddatli resurslar narxini ifodalovchi benchmark stavka – UZONIA stavkasini foiz koridori doirasida hamda asosiy stavkaga yaqin shakllanishini ta’minlash belgilangan.

II. Banklararo pul bozori tahlili

2.1. Pul bozori dinamikasi va foiz stavkalari

2026-yilning II choragida banklararo pul bozorida jami 175 trln so‘mlik operatsiyalar amalga oshirilib, bitimlar umumiy hajmi I chorakka *(163 trln so‘m)* nisbatan 7,3 foizga oshdi *(8-rasm)*. Chorak davomida oylik hajmlar o‘zgaruvchan dinamika kasb etib, aprel oyidagi 59,8 trln so‘mdan may oyida 37,8 trln so‘mgacha pasaygan bo‘lsa, iyun oyida 77,3 trln so‘mga yetdi.


2026-yilning II choragida banklararo amaliyotlarning 72 foizi REPO operatsiyalariga to‘g‘ri keldi va ushbu operatsiyalarning jami hajmi 125,5 trln so‘mni tashkil etdi *(I chorakda 121,1 trln so‘m*).

Banklararo depozit operatsiyalarining hajmi o‘tgan chorakka nisbatan 17,8 foizga oshib, 49,4 trln so‘mni tashkil etdi. Bunda eng yuqori faollik aprel *(20,5 trln so‘m)* va iyun *(19,3 trln so‘m)* oylarida kuzatildi.


Banklararo pul bozoridagi operatsiyalar hajmining oshishi, asosan, iyun oyidagi bozor faolligining jadallashuvi bilan izohlanadi. May oyidagi pasayish esa likvidlik profitsitining oshishi sharoitida banklarning o‘zaro resurs jalb qilishga bo‘lgan ehtiyoji kamayganini ifodalaydi.

Banklararo REPO operatsiyalarining depozit operatsiyalariga nisbatan ko‘pligi esa, o‘z navbatida, banklar tomonidan likvidlik hamda kredit tavakkalchiliklarini boshqarish maqsadida o‘zaro operatsiyalarda garov mulkiga bo‘lgan talabni ifodalaydi.

8-rasm. Banklararo pul bozori amaliyotlari, *trln so‘m*



9-rasm. Banklararo pul bozori amaliyotlari stavkasi, *foizda*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Pul bozoridagi operatsiyalar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkalari ushbu davrda to‘liq foiz koridori doirasida, biroq I chorakka nisbatan 0,3 foiz bandga past, 13,4 foiz darajasida shakllandi. Bunda, foiz stavkalar bank tizimida likvidlik hajmining yuqoriligi hisobiga asosiy stavkadan pastroq shakllandi *(9-rasm)*.


Muddatlar kesimida foiz stavkalarining shakllanishi turlicha bo‘lib, bozorning qisqa muddatli segmentlarida foiz stavkalarining izchil pasayishi kuzatildi.

II chorakda banklararo overnayt operatsiyalar bo‘yicha o‘rtacha tortilgan foiz stavkasi I chorakka nisbatan 0,3 foiz bandga pasayib, 13,4 foizga teng bo‘ldi *(10-rasm)*. Muddati 2-7 kunlik operatsiyalar bo‘yicha stavka esa 0,5 foiz bandga pasayib, 13,4 foizni tashkil etdi.


Overnayt REPO operatsiyalari bo‘yicha hisoblanadigan UZONIA benchmark foiz stavkasi chorak davomida foiz koridori doirasida shakllandi. II chorakda o‘rtacha UZONIA stavkasi I chorakka nisbatan 0,3 foiz bandga pasayib, 13,4 foizni tashkil etdi *(11-rasm)*.

UZONIA benchmark foiz stavkasi aprel oyidagi o‘rtacha 13,6 foizdan may oyida 13,1 foizgacha pasaydi. Bunda, 25-may kuni chorak davomidagi eng quyi qiymat – 12,4 foiz darajasida shakllandi.

10-rasm. Pul bozoridagi muddatlar bo‘yicha foiz stavkalar, *foizda*



11-rasm. Pul bozorining benchmark foiz stavkasi, *foizda*



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Iyun oyida Markaziy bank likvidlikni jalb qilish operatsiyalari ko‘lamining kengayishi natijasida UZONIA stavkasi tiklanib, oy davomida o‘rtacha 13,3 foizni, chorak yakunida esa 13,6 foizni tashkil etdi. Ushbu dinamika likvidlik profitsitining jadal o‘sishi sharoitida pul bozorida benchmark stavkaning tebranuvchanligi oshganini ko‘rsatadi. Xususan, chorak davomidagi standart chetlanish 0,3 foiz bandga teng bo‘lib, I chorakka nisbatan *(0,14 foiz band)* ikki barobar yuqori bo‘ldi.

2.2. Banklararo pul bozori segmentatsiyasi

2026-yilning II choragida ham banklararo pul bozoridagi operatsiyalarning asosiy qismini overnayt operatsiyalar tashkil etgan bo‘lib, ularning ulushi I chorakdagi 89 foizdan 93 foizgacha oshdi *(12-rasm)*.


II chorak davomida banklararo pul bozoridagi overnayt shaklidagi REPO hamda depozit operatsiyalari umumiy hajmi I chorakka nisbatan 11,6 foizga oshib, 162,7 trln so‘mni tashkil etdi.

Muddati 2-7 kunlik operatsiyalar ulushi I chorakdagi 8,7 foizdan 6 foizgacha, muddati 8-30 kunlik amaliyotlar ulushi 0,8 foizdan 0,6 foizgacha, muddati 30 kundan yuqori bo‘lgan operatsiyalarning ulushi esa 1 foizdan 0,6 foizgacha pasaydi.


Bozorning yanada qisqa muddatli segmentga siljishi likvidlik profitsiti yuqori bo‘lgan sharoitda ishtirokchilarning uzoqroq muddatlarga resurs jalb qilishga bo‘lgan ehtiyoji kamayganini ifodalaydi.

Ushbu davrda pul bozorida likvidlik taqdim etuvchi banklarning kunlik o‘rtacha soni 8 tani tashkil etgan bo‘lsa *(I chorakda – 9 ta)*, likvidlikni jalb etuvchi banklar kunlik o‘rtacha soni I chorakka nisbatan o‘zgarishsiz 7 taga teng bo‘ldi.

12-rasm. Pul bozorlaridagi operatsiyalarning muddatlar kesimida ulushi, *foizda*



13-rasm. Pul bozori bo‘yicha “Herfindahl-Hirshman” indeksi



Manba: Markaziy bank hisob-kitoblari

Chorak davomida banklararo pul bozoridagi faollikning oshishi operatsiyalar ko‘lami hamda bozor ishtirokchilari soni jihatidan bank tizimida likvidlikni qayta taqsimlash mexanizmlarining rivojlanib borayotganini ko‘rsatadi.

Pul bozorining likvidlikni jalb etish segmentida eng faol 3 ta bankning ulushi I chorakka *(81 foiz)* nisbatan 7 foiz bandga pasayib, o‘rtacha 74 foizga teng bo‘lgan bo‘lsa, likvidlikni taqdim etish segmentida eng faol 3 ta bankka jami amaliyotlarning 51 foizi *(I chorakda 50 foiz)* to‘g‘ri keldi.

Ushbu ko‘rsatkichlar bozordagi foiz stavkalari shakllanishida likvidlik jalb etish segmentidagi ishtirokchilar asosiy rol o‘ynashda davom etayotganini, biroq ushbu segmentda raqobat muhiti nisbatan yaxshilanganini bildiradi.

Pul bozorining konsentratsiyalashuv darajasini ifoda etuvchi “Herfindahl-Hirshman” indeksi[4] *(HH indeksi)* bo‘yicha hisob-kitoblarga ko‘ra, likvidlikni jalb etish segmentida konsentratsiya darajasi chorak davomida izchil pasayib, aprel oyidagi 2 426 dan iyun oyida 2 057 gacha tushdi *(13-rasm)*.





Shunga qaramay, ushbu segment hamon “nisbatan konsentratsiyalashgan” toifada qolmoqda. Bu holat yuqori likvidlik profitsiti sharoitida likvidlikni jalb etish operatsiyalarining cheklangan doiradagi ishtirokchilar hissasiga to‘g‘ri kelishi bilan izohlanadi.

Likvidlik taqdim etish segmentida esa konsentratsiya nisbatan past va barqaror bo‘lib qolmoqda. HH indeksi aprel oyidagi 1 128 dan iyun oyida 1 337 gacha oshgan bo‘lib, ushbu segmentda raqobat muhiti nisbatan yuqoriligini ifodalaydi.

[4] **“Herfindahl-Hirshman” indeksi** – bozorda *(tarmoqda)* konsentratsiya darajasini ifodalovchi ko‘rsatkich bo‘lib, bozor ishtirokchilari ulushining kvadratlari yig‘indisi ko‘rinishida hisoblanadi. Ko‘rsatkich 0 dan 10 000 oralig‘ida bo‘lib, 10 000 bir tashkilotning mutlaq bozorga egaligini *(monopoliya)* ifodalasa, qiymat 0 ga yaqinlashgani sari raqobatning kuchayib borishi kuzatiladi. Tahlilchilar tomonidan indeksning 1 500-2 500 oraliqda bo‘lishi tizimning “nisbatan konsentratsiyalashganligi” va 2 500 dan yuqori bo‘lishi “yuqori darajada konsentratsiyalashganligi” bildiriladi.

Ilova

Pul bozorining depozit va REPO segmentida banklar o‘rtasida amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi tahlili[5]

<table>
<tr><td colspan="2">2026-yil I chorak</td></tr>
<tr><td>Depozit bozori</td><td>REPO bozori</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
<tr><td colspan="2">2026-yil II chorak</td></tr>
<tr><td>Depozit bozori</td><td>REPO bozori</td></tr>
<tr><td></td><td></td></tr>
</table>

[5] Ushbu grafikda pul bozoridagi eng faol banklar nomi shartli raqamlarda ifodalangan bo‘lib, likvidlik taqdim etish va jalb qilishda yuqori ulushga ega banklar doira bo‘ylab alohida ranglarda aks ettirilgan. Bunda, doira chetidagi rang bilan bir xil rangdagi chiziqli bog‘lanishlar ushbu bank uchun likvidlik taqdim etish operatsiyalarini bildirsa, boshqa ranglardagi bog‘lanishlar bank uchun likvidlik jalb qilish operatsiyalarini ko‘rsatadi.

© O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026-yil

Xujjatning elektron versiyasi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki veb-saytining “Pul-kredit siyosati nashrlari” bo‘limining “Pul bozori va likvidlik sharhi” kichik bo‘limida joylashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy sayti: www.cbu.uz.

Pul-kredit siyosati departamenti tomonidan tayyorlandi.

O‘z taklif va e’tirozlaringizni quyidagi manzilga jo‘natishingiz mumkin:

E-mail: sinogamov@cbu.uz

Tel.: (+998) 71 212-60-22